

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisini qabul qildi



Bugun, 30 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hukumat rahbarlari darajasidagi Qo'shma komissiyaning birinchi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Dmitriy Medvedevni qabul qildi.

Prezidentimiz mehmonni samimiy qutlar ekan, strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhidagi ikki tomonlama munosabatlar jadal rivojlanayotgani va izchil mustahkamlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Rossiya Hukumati Raisi, o'z navbatida, samimiy qabul uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirib, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda oliy darajadagi muntazam va samarali muloqot, Rossiya Prezidentining o'tgan yil oktabr oyida mamlakatimizga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarning birgalikda amalga oshirilishi ko'p qirrali O'zbekiston-Rossiya aloqalarini kengaytirishga, amaliy hamkorlikni aniq dastur va loyihalar bilan boyitishga xizmat qilgani ta'kidlandi.

O'zaro aloqalar va almashinuvlar faollashgani alohida ta'kidlandi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha "yashil yo'lak" samarali ishlamoqda, to'qimachilik mahsulotlarini yetkazishda soddalashtirilgan bojxona tartibi joriy etilgan.

Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha ikki tomonlama dastur doirasida hududlar va ishbilarmonlar darajasida umumiy qiymati 13 milliard dollardan ziyod yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Bugun O'zbekistonda Rossiyaning "Gazprom", "Lukoil", "Forus", "Tatneft", "Silov?e mashin?", "Kamaz", "Yevrosement", "Ekokultura", "Gazprombank", "VEB" va boshqa ko'plab yetakchi kompaniya va banklari faol ishlamoqda.

Madaniy-gumanitar aloqalar mustahkamlanmoqda. Yaqinda mamlakatimizda Rossiya madaniyat markazining 25 yilligi keng nishonlandi, Rossiyalik vatandoshlarning mintaqaviy konferensiyasi va Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti bitiruvchilarining beshinchi xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Uchrashuvda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish hamda turli iqtisodiy tarmoqlardagi ustuvor investitsiya loyihalarini jadallashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

"Rosatom" davlat korporatsiyasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha strategik loyihani o'z vaqtida va sifatli tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Savdo aloqalari va ishlab chiqarish kooperatsiyasini yanada faol rivojlantirish uchun mamlakatlarimiz hududlarining salohiyatini samarali ro'yobga chiqarish muhim ekani ta'kidlandi. Hududlar ma'muriyati va ishbilarmon doiralar darajasida almashinuvlarni faollashtirishga kelishib olindi.

Shuningdek, ilmiy-texnik va gumanitar hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Bugun Urganch shahrida bo'lib o'tadigan Qo'shma komissiya birinchi majlisi bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik ko'rishda muhim bosqich bo'lishi hamda o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olishga xizmat qilishi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi uzoq muddatli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini har tomonlama rivojlantirish, keng ko'lamli amaliy hamkorlikni mustahkamlashga tayyor ekani va bu boradagi intilish qat'iyligi ta'kidlandi.

O'ZA